



## PIRLS XALQARO TADQIQOTI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Kamalova N.T.*

*Fan va texnologiyalar universiteti Pedagogika kafedrasi v/b dotsenti*

**Tayanch soʻzlar:** xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, oʻqish savodxonligi, matni oʻqib tushunish, xalqaro tajribalar.

**Ключевые слова:** международные программы оценки, PIRLS, читательская грамотность, понимание прочитанного, международный опыт.

**Key words:** international assessment programs, PIRLS, reading literacy, reading comprehension, international experience.

### **РЕЗЮМЕ:**

Mazkur maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish savodxonligi, matni oʻqib tushunish darajasini baholashga moʻljallangan PIRLS dasturi haqida maʼlumotlar, ushbu dasturda ishtirok etish boʻyicha xalqaro tajribalardan misollar, oʻqish savodxonligini rivojlantirish omillari, unga erishishda yetakchilik qilayotgan mamlakatlar tajribalari haqida fikrlar va maʼlumotlar keltirilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье представлена информация о программе PIRLS, которая предназначена для оценки уровня читательской грамотности и понимания прочитанного у учащихся начальных классов, а также о международных рекомендациях по участию в этой программе. представлены примеры опыта, факторы развития читательской грамотности, мнения и информация об опыте стран-лидеров в ее достижении.

### **SUMMARY:**

This article provides information about the PIRLS program, which is designed to assess the level of reading literacy and reading comprehension in primary school students, as well as international recommendations for participation in this program. Examples of experience, factors in the development of reading literacy, opinions and information about the experience of leading countries in achieving it are presented.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqib tushunish koʻnikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi maʼlumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, oʻqish va oʻqitishni yaxshilashda taʼlim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin boʻlgan tahlillarni taqdim etadi. Hozirgi vaqtda PIRLS taʼrifiga koʻra, oʻqish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til



shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir [1].

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilgan.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalari, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida o'qishini ikki turi baholanadi:

1. O'quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish;
2. Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Tadqiqot qoidalariga muvofiq, badiiy va informatsion matnlarni o'qiyotganda o'qish qobiliyatining to'rtta guruhi baholanadi:

- aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- ma'lumotlarni talqin va sintez qilish;
- mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – o'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – o'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.



Quyida daraja (400 ball) – O‘quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo‘lgan xabarni ajratib oladi.

PIRLS da bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo‘llanadi:

- javobni tanlash usulidagi to‘g‘ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to‘g‘ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- erkin javob berish kerak bo‘lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1 balldan 3 ballgacha baholanadi.

Natijalarni yakuniy qayta ishlash uchun zamonaviy sinov nazariyasi qo‘llanadi.

PIRLS 2021 tadqiqotida O‘zbekiston o‘quvchilari ham ishtirok etib 57 mamlakatlar orasida 49-o‘rinni egalladi. Birinchi o‘rin esa, Osiyoning yana bir mamlakati Singapur, ikkinchi o‘rin Irlandiya, uchinchi o‘rin Gonkong mamlakati yuqori o‘rinlarni egallagan. Ma’lumot uchun, MDX mamlakatlari ham ushbu nufuzli tadqiqotda ishtirok etib, Rossiya 4-o‘rin, Qozog‘iston 38-o‘rin, Gruzziya 41-o‘rin va Ozarbayjon 48-o‘rinlarni egallagan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, O‘zbekistonlik o‘quvchilar PIRLSda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishlari uchun ularga barcha sharoitlar yaratilgan. Faqatgina berilgan resurslardan unumli foydalanish va o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan muhabbatini kuchaytirish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

#### Adabiyotlar:

1. Абдираимов, Шоҳруҳ Самад ўғли (Шоҳруҳ АБДУРАҲИМ) Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолаш [Магн]: монография / Ш.С. Абдираимов. – Тошкент: Nodirabegim, 2021. – 128 б.
2. Дилова Н.Г. (2018). Важность совместного обучения в повышении эффективности начального образования. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. С. 90-91.
3. Zakirova M.Sh., Ermatova N.N. Test tuzish metodikasi va ekspertizasi. Toshkent. 2018. 41 b.
4. Irisbayeva Y. Using "Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.
5. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
6. Irisbayeva Y. Professional readiness of future educators to interact with children of preschool age // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 7.
7. O‘tbosarova I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – T. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
8. O‘tbosarova I. Y. Pedagogical opportunities for improving the readiness of students to interact with children //Confrencea. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 268-270.
9. Irisbayeva Y Training of students for professional activity in system of preschool education // International Conference ISBN 978-83-66030-19-0 \ 2018/4/27 \ Страницы 328
10. Kalendarova Z.K. Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish // “Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan o‘quv materiallarini uzluksiz ta’lim tizimiga keng joriy etishni optimallashtirish” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. 2023 yil. 323-327 bet.